



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ALISHER NAVOIY FALSAFASIDA IQTISODIY MASALALARINING GUMANISTIK TALQINI

Norov Toji Omonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor (DSc)

Annotatsiya

Ushbu maqola buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning falsafiy qarashlar tizimidagi iqtisodga oid qarashlariga bag'ishlangan. Uning iqtisodiy munosabatlari soliq, bojxona, bozor, etakchilik, savdo, sotiq, xayriya faoliyati misolida tahlil qilingan. Maqola uning "Mahbubul-qulub", "Munshaot", "Vaqfiya", "Hayratul-abror", "Saddi Iskandariy" kabi hikmatlari, amaliy ishlari va yozishmalariga asoslanadi.

Kalit so'zlar: Adliya, iqtisod, soliq, bojxona, bozor, poyabzalchi, savdo, savdogar, xayriya, vaqf, muhtasib(soliq inspektori), tibbiyot, zakot, dehqonchilik.

ГУМАНИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ В ФИЛОСОФИИ АЛИШЕРА НАВАИ

Норов Тожи Омонович

Ташкентский государственный экономический университет, профессор (DSc)

Аннотация

Данная статья посвящена взглядам великого мыслителя Алишера Навои на экономику в системе философских взглядов. Его экономические отношения были проанализированы на примере налоговой, таможенной, рыночной, сапожной, торговли, коммерции, благотворительной деятельности. Статья основана на его мудрости, практической работе и переписке в таких произведениях, как «Махбубул-гулуб», «Муншаот», «Вакфия», «Хайратул-аброр», «Садди Искандарий».

Ключевые слова: Правосудие, хозяйство, налог, таможня, рынок, сапожник, торговля, купец, благотворительность, пожертвование, мухтасиб (налоговый инспектор), медицина, закят, земледелие.

HUMANISTIC INTERPRETATION OF ECONOMIC ISSUES IN THE PHILOSOPHY OF ALISHER NAVAI

Norov Toji Omonovich

Tashkent State University of Economics, Professor (DSc)

Abstract

This article is devoted to the views of the great thinker Alisher Navoi on economics in the system of philosophical views. His economic relations were analyzed on the example of tax, customs, market, cobblers, trade, commerce, charitable activities. The article is based on his wisdom, practical work and correspondence in such works as "Mahbubul-qulub", "Munshaot", "Vaqfiya", "Hayratul-abror", "Saddi Iskandariy".

Keywords: Justice, economy, tax, customs, market, cobbler, trade, merchant, charity, endowment, muhtasib (a tax inspector), medicine, zakat, farming.

Alisher Navoiy ijodi ko'pqirrali va keng qamrovli bo'lib, mutafakkir qalam yuritmagan mavzu deyarli yo'q. Uning ijodiy merosi yaxlitligini ta'minlagan asosiy g'oya insonparvarlik bo'lib, unda inson, uning tabiati, shakllanishi, tarbiyasi va kamoloti, erki, huquqi hamda

manfaatlari ustuvor masala sifatida talqin etiladi. Navoiy falsafiy merosining salmoqli qismi insonning ma'naviy kamoloti va moddiy farovonligi muammolariga qaratilgani bois, uning asarlarida ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiyot bilan bog'liq masalalar ham chuqur tahlil qilingan.

E'tiborli jihati shundaki, mutafakkir asarlarida iqtisodiy masalalar yuksak badiiy-falsafiy saviyada aks etgan bo'lsa, uning davlat arbobi sifatidagi amaliy faoliyatida ham iqtisodiy boshqaruv, ijtimoiy farovonlik, adolatli taqsimot va xayriya tizimi bilan bog'liq masalalar muhim o'rin tutgan. U temuriy hukmdorlarga ma'naviy rahnamo va maslahatchi sifatida nafaqat nazariy, balki amaliy faoliyat ham olib borgan. Shunga qaramay, Navoiy merosi ko'proq adabiyotshunoslik, tilshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik va poetika doirasida o'rganilib, uning iqtisodiy qarashlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada Navoiy ijodi va amaliy faoliyatidagi iqtisodiyot bilan bog'liq masalalarni qisman tahlil qilishga harakat qilinadi.

Asosiy qism

Navoiy shaxsiga temuriy shahzodalar orasida nihoyatda katta hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lingan. Bu hol tarixiy manbalar, Husayn Boyqaroning unga yozgan maktublari va mutafakkir haqidagi boshqa hujjatlarda yaqqol aks etadi. Mirxondning "Ravzat us-safo" asarida Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga yo'llagan maktublarida uni "hidoyat egasi, sharaf va hurmatning qaytish joyi, dinu davlat arboblarning sarasi, mulku millat egalarining yetakchisi, xayru ehsonlarni ta'sis etuvchi, saltanat ustuni, podshohlarni qo'lidan yetaklovchi, xoqon davlatining umidi, sulton hazratlarining yaqin do'sti, haqiqat va din nizomi Amir Alisher" [13:326] kabi yuksak ta'riflar bilan ulug'lagani qayd etiladi. Mazkur ta'riflar Navoiyning saltanatdagi mavqei naqadar yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

Bobur ham "Boburnoma"da Husayn Boyqaro hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni tavsiflar ekan, davlat boshqaruvi, tartib-intizom va osoyishtalikni ta'minlashda Alisher Navoiyning o'rni alohida bo'lganini ta'kidlaydi. Uning yozishicha, Husayn Boyqaro davlatchiligi va mamlakat farovonligida "Alisherbekcha tarbiya beruvchi va madadkor kishi hech bo'lgan emas. Hirot kishilaridan biror kishi biror narsa ixtiro qilsa, uni Alisher nomiga qo'yar edi, chunki Navoiy o'zi juda ko'p yangiliklar yaratar edi" [14]. Ushbu mulohaza Navoiy faoliyatining ma'naviy-ma'rifiy jihati bilan bir qatorda, amaliy boshqaruv va iqtisodiy tashkilotchilik qobiliyatini ham namoyon etadi.

Navoiyning mashhur shaxslar va temuriy shahzodalar, xususan, Sulton Husayn Boyqaro bilan olib borgan yozishmalaridan tashkil topgan "Munshaot" asarida iqtisodiy boshqaruv va bozor nazorati masalalariga oid muhim ko'rsatmalar uchraydi. Jumladan, unda: "Muhtasib haftada ikki qatla bozor ahlining narxlaridin vuquf topsalar" [1:188], degan ko'rsatma beriladi. Mazkur fikr bozor narxleri va savdo muhitini muntazam nazorat qilish zarurligini ifodalaydi.

Navoiy huquqiy munosabatlarni tartibga solish, xalq va davlatning iqtisodiy hayotini farovonlik sari yo'naltirish masalalarida hukmdor va mansabdor shaxslarga aniq tavsiyalar bergan. "Munshaot"da quyidagi muhim ko'rsatma keltiriladi: "Zakotni shar' va hukm yo'suni bila zakotchilar alardin mustaxlas qilsalar. Zakotchilar ishidan tavochi moh-bamoh, balki haftabahafta vuquf topib, arzg'a yetkursalar. Juzviy jarima qilg'anini kulliy siyosat qililsa, bok yo'qdur, to bu ovoza olam mamolikiga yoyilsa, tujjorning ruju'i ko'prak bo'lsa" [1:191]. Ushbu parchaning mazmunidan anglashilishicha, Navoiy chetdan keladigan savdogarlarga qulay sharoit yaratish tarafdori bo'lgan. U zakotchi va soliq yig'uvchilarning nohaq xatti-harakatlari qat'iy jazolanishi lozimligini ta'kidlab, shu yo'l bilan xorijiy savdogarlarning mamlakatga bo'lgan ishonchini oshirishni taklif etadi. Bu qarashlar mutafakkirning davlat boshqaruvi, iqtisodiy siyosat va xalqaro savdo masalalarini chuqur anglaganini ko'rsatadi.

Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari uning umri davomida to'plagan bilim va tajribalarining umumlashmasi sifatida yaratilgan bo'lib, unda ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy masalalar keng yoritilgan. Asarning birinchi qismida qirqdan ziyod ijtimoiy guruhlariga tavsif beriladi va jamiyatning moddiy farovonligi bilan bog'liq qimmatli fikrlar bayon qilinadi. Bu masalalarni yoritishda Navoiy iqtisodiy hayotdagi salbiy holatlarni ochiq va keskin tanqid ostiga

oladi.

Jumladan, asarning “Tijorat ahli zikrida” faslida savdogarlar faoliyati ikki qirrali tarzda tasvirlanadi. Bir tomondan, ular uzoq o‘lkalarga borib, jamiyatga yangilik va axborot olib kiruvchi nodir kishilar sifatida e’tirof etiladi; ikkinchi tomondan esa, foyda orttirish ilinjida qattiq mashaqqat chekadigan, ko‘pincha halollik va shariat mezonlaridan og‘ish xavfi ostida bo‘ladigan toifa sifatida tanqid qilinadi [2:34]. Bu yerda Navoiy halol savdo, mehnat va adolatli iqtisodiy faoliyatni qadrlaydi, biroq ochko‘zlik, zakotdan qochish va faqat manfaat orqasidan quvishni qoralaydi.

Asarning “Shaharda olib sotquvchilar zikrida” bobida esa Navoiy shahar savdogarlarining insofsizliklari, narx-navoni asossiz oshirish, sifatsiz molni qimmatga sotish, musofir savdogarlarni aldash kabi illatlarini keskin tanqid qiladi [2:35]. “Bozor kosiblari zikrida” bobida ham xuddi shu ruh davom etib, firibgarlik, va’dasizlik, tarozidan urish va tamagirlik qattiq qoralanadi [2:35]. Bunday mulohazalar Navoiy iqtisodiy adolat va bozor axloqi masalasiga naqadar jiddiy yondashganini ko‘rsatadi.

Mutafakkir “Mahbub ul-qulub”ning “Dehqonchilik zikrida” bobida dehqon mehnatini jamiyat farovonligining asosi sifatida ulug‘laydi. U dehqonni nafaqat insonlarning, balki barcha jonzoqlarning rizq manbaini yaratadigan zot sifatida talqin etadi. Navoiy dehqonni Odam Atoga qiyoslab, uning mehnati orqali butun jamiyat va tabiat manfaatdor ekanini ta’kidlaydi [2:34]. Bu qarash dehqonchilikni iqtisodiyotning tayanch sohasi sifatida tushungan holda, mehnat taqsimoti va umumiy manfaat tamoyillarini yuksak badiiy shaklda ifodalaganini ko‘rsatadi.

“Munshaot”da shahar dorug‘asi va boshqa mansabdorlar faoliyatini nazorat qilishga doir ko‘rsatmalar ham uchraydi. Jumladan: “Yana ulkim, shahr dorug‘asidin beklar bila Xoja Falon andoq sohib vuquf bo‘lsalarkim, juzviy ishdin kulliy imdod tilamasalar” [1:189], deyiladi. Bu yerda shahar dorug‘asi arzimagan ish bahonasida ortiqcha talab va tamagirlik qilmasligi lozimligi ta’kidlanadi. Dorug‘a — tuman, shahar yoki viloyat soqchilari boshlig‘i bo‘lib, aholini ro‘yxatga olish, soliqlarni yig‘ish, askar to‘plash va mahalliy nazorat ishlarini yuritgan [3:505]. Demak, Navoiy mahalliy boshqaruv tizimidagi suiiste’mollarning oldini olish masalasiga ham jiddiy e’tibor qaratgan.

Shariat asosida ijtimoiy tartibni saqlash va bozor nazoratini amalga oshirishda muhtasiblar muhim rol o‘ynagan. Ular bozorlardagi narx-navoni, tosh-tarozining to‘g‘riligini, ma’naviy me’yorlarga rioya etilishini kuzatganlar. “Munshaot”dagi: “Muhtasib haftada ikki qatla bozor ahlining narxlaridin vuquf topsalar” [1:188], degan jumla bozor nazoratining muntazam va tizimli bo‘lishi kerakligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Sharq siyosiy tafakkuri va boshqaruv madaniyatining ayrim xususiyatlari Navoiy asarlarida badiiy obrazlar orqali ham ochib beriladi. Xususan, “Hayrat ul-abror” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida hukmdor adolati, soliq siyosati va davlat boshqaruvi bilan bog‘liq masalalar yuksak badiiy shaklda talqin etiladi. “Hayrat ul-abror”ning 59-bobida Bahromning mayga berilib ketgani natijasida mamlakatda tartibsizlik va xalqning iztirobga tushgani, soliqchilar zulmi tufayli fuqarolarning boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketgani bayon qilinadi [15:316–317]. Bu tasvirlar orqali Navoiy noadolatli boshqaruvning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini ko‘rsatadi.

“Saddi Iskandariy”ning XIX bobida esa: “Soliq yozuvchi amaldor xalqqa sitam qilsa, soliq yozuvchi qo‘lini qalamdek qalam qilsin” [12:106], degan keskin badiiy ifoda keltiriladi. Bu yerda nohaq soliq siyosati olib borgan mansabdorlarni qat’iy jazolash g‘oyasi ilgari suriladi. Asarning XXXI bobida esa Iskandar obrazi orqali adolatli boshqaruv namunasi ko‘rsatiladi: u xalqdan ortiqcha undiruvlarni kamaytirib, xazinadan maosh berish orqali elni ranjdan qutqaradi [12:208–209]. Demak, Iskandar Navoiy orzusidagi adolatli hukmdor timsolidir.

Navoiyning insonparvarligi uning xayriya faoliyatida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. U o‘zi faqirona va so‘fiyona hayot kechirgan holda, asosiy mol-mulkinini vaqf qilib, xalq foydalanishiga topshiradi. “Vaqf” arabcha so‘z bo‘lib, din yo‘lida ajratilgan mol-mulk ma’nosini

anglatadi. Islom an'anasida u davlat yoki alohida shaxslar tomonidan masjid, madrasa va boshqa xayriya muassasalariga ajratilgan mol-mulknı bildiradi [4:79; 5:79].

Xondamirning qayd etishicha, XV asrning 80-yillari davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirot va boshqa shaharlarda bir necha madrasa, qirqta rabot, o'n yettita masjid, o'nta xonaqoh, to'qqizta hammom, to'qqizta ko'prik va yigirmaga yaqin hovuz qurdirgan yoki ta'mirlagan [6:233–239]. Bular orasida Hirotidagi "Ixlosiya", "Nizomiya" madrasalari, "Xolosiya" xonaqosi, "Shifoiya" shifoxonasi, Qur'on tilovot qiluvchilar uchun "Dor ul-huffoz", Marvdagi "Xusraviya" madrasasi va Mashhaddagi "Dor ul-huffoz" kabi inshootlar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur faoliyat Navoiy insonparvarlik g'oyalarini amaliyotda ro'yobga chiqarganini ko'rsatadi.

"Vaqfiya"da mol-mulklar, yerlar, ularning taqsimoti va nazorati tizimi juda aniq belgilangan. Unda vaqf qilingan yerlar va binolar, ularni boshqarishga tayinlangan shaxslar, ularning maoshlari, ta'mirlash ishlari, xayriya tadbirlari, mudarris va talabalar uchun joriy qilingan qoidalar, shuningdek, vaqf mulklarini saqlash va nazorat qilish tizimi batafsil bayon etilgan [7:404]. Manbalarda Navoiy vaqf qilgan yerlarning umumiy hajmi 460 jeribga teng ekani qayd etiladi. E'tiborli jihati shundaki, u o'ziga tegishli deyarli barcha mulk va yerlarni vaqfga beradi, o'zi uchun esa faqat oddiy ehtiyoj darajasidagi narsalarni qoldiradi [8:255–256].

"Vaqfiya"da mudarrislar va talabalar uchun tayinlangan maosh va don-dun miqdori ham aniq ko'rsatilgan. Masalan, ikki mudarrisning har biriga o'n bittadan talaba birlashtirilgan. Mudarrislariga yiliga 1200 oltin naqd pul va 24 yuk oshlik berilishi belgilangan. Talabalar esa o'zlashtirish darajasiga ko'ra uch toifaga bo'lingan: a'lo bahoga o'qiydiganlarga oyiga 24 oltin va 5 yuk oshlik, o'rta darajadagilarga 16 oltin va 4 yuk bug'doy, pastroq darajadagilarga 12 oltin va 3 yuk oshlik berilgan [8:260–269]. Bu holat Navoiy ijtimoiy adolat va rag'batlantirish tamoyillarini puxta anglaganini ko'rsatadi.

"Vaqfiya"da vaqf tizimi ustidan nazorat, hisob-kitob va huquqiy daxlsizlik masalalari ham alohida ta'kidlangan. Har o'ttiz yilda vaqf hujjatlarini yangilash, ularni asliyat bilan taqqoslash, vaqf boshqaruviga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, amaldorlarning vaqf xodimlaridan noqonuniy biror narsa talab qilmasligi lozimligi haqida qat'iy qoidalar belgilangan [8:256]. Bu tamoyillar Navoiy tomonidan yaratilgan boshqaruv modelining naqadar puxta va zamonaviy ruhda ekanini ko'rsatadi.

Navoiyning vaqf tizimi haqidagi qarashlari bugungi mustaqil O'zbekiston sharoitida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son Farmoniga muvofiq tashkil etilgan "Vaqf" xayriya jamoat fondi masjidlar va diniy ta'lim muassasalari binolarini qurish va ta'mirlash, ularning ilmiy-pedagogik xodimlari va talabalarini moddiy qo'llab-quvvatlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko'rsatish kabi vazifalarni amalga oshirmoqda [9; 10]. Bu hol Navoiy ilgari surgan insonparvarlik va xayriya tamoyillari bugungi kunda ham amaliy ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Xulosa

Navoiy o'z asarlarida ilgari surgan teran falsafiy qarashlar tizimida ham, amaliy faoliyatida ham temuriy hukmdorlar va shahzodalarni adolatga, qonunchilikka rioya etishga, Qur'oni karim, hadislar, fiqh ilmi, "Temur tuzuklari" va "Zafarnoma" kabi manbalardan saboq chiqarib, o'z faoliyatlarida xolis va adolatli bo'lishga undaydi. U ilgari surgan asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

- hukmdorning o'zi shariat va qonun talablariga amal qilishi hamda boshqalardan ham shuni qat'iy talab etishi;
- raiyat ahvolidan doimo boxabar bo'lib turish, adolat izlab kelganlarning arzini muntazam tinglash, zolimlarni jazolash, shoh va fuqaro o'rtasida o'zaro ishonch hamda muhabbatni qaror toptirish;
- devon ishlarini qat'iy intizom asosida yuritish, ta'magirlik, poraxo'rlik va sustkashlikka

yo‘l qo‘ymaslik.

Mazkur tamoyillar bugungi mustaqil O‘zbekiston sharoitida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Xususan, qonun ustuvorligini ta‘minlash, Konstitutsiya va qonunlarni takomillashtirish, sud-huquq tizimini izchil isloh qilish, adolat tamoyilini amaliyotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylangan. Shu ma‘noda, Alisher Navoiyning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy qarashlari nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Навоий А.Муншаот // МАТ: 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1998. – 14-жилд. – 188 б.
2. Навоий А.Махбуб ул-қулуб // МАТ: 20 томлик. – Т.: Фан, 1998. – 14-т. – 34 б.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 1983. – Т. 1. – 505 б.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – “Вақф” мақоласи. – Б. 76–84.
5. Ислом: справочник / таҳр. М. А. Усмонов. – Т., 1989. – “Вақф” мақоласи.
6. Султон И.Навоийнинг қалб дафтари. – Т.: Ғафур Ғуллом номидаги нашриёт, 1973.
7. Ўзбек адабиёти тарихи: 4 томлик. – Т.: 1977. – Т. 2.
8. Навоий А.Вақфия // МАТ: 20 томлик. – Т.: 1998. – 14-т. – Б. 255–256.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5416-son Farmoni (2018 yil 16 aprel). – URL: <https://lex.uz/docs/-3686277>
10. “Vaqf” xayriya jamoat fondi tashkil qilindi. – URL: <http://www.vaqf.uz/uz>
11. “Vaqf” xayriya jamoat fondi tashkil qilindi. – URL: <http://muslim.uz/index.php/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/7487-va-f-khajriya-zhamoat-fondi-tashkil-ilindi>
12. Навоий А.Садди Искандарий // МАТ: 20 томлик. – Т.: Фан, 1993. – 11-т. – 106 б.
13. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011. – 326 б.
14. Бобур З. М. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989.